

INNOVATSIYA VA INNOVATSION SALOHİYATNING PEDAGOGIK AHAMIYATI

D.Xakimova

A.Avloniy nomidagi pedagogik mahorat milliy instituti “Ijtimoiy va amaliy fanlar metodikasi” kafedrasi mudiri, p.f.d. (DSc), dotsent

Annotatsiya. Maqolada innovatsiya va innovatsion salohiyat tushunchalari, unga turli olimlar tomonidan berilgan ta’riflar hamda innovatsiyaning O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishdagi ahamiyati bayon etilgan.

Kalit so‘zlar: innovatsiya, ilm-fan, innovatsion salohiyat, yangi g‘oya, innovatsion jarayonlar.

“Bugungi kunda dunyoda innovatsion g‘oyasiz, ilm fan yutuqlarisiz bironta sohaning rivojlanishi mumkin emas”.

Sh.Mirziyoyev.

Mamlakatimizda ilmiy va innovatsion faoliyatni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash, ilmiy-innovatsion infratuzilmani rivojlantirish, yangiliklarni ta’lim-tarbiya jarayonlariga maqsadli joriy etish mexanizmlarini takomillashtirishga katta e’tibor qaratilmoqda. Ayniqsa, O‘zbekiston Respublikasining 2020-yil 24-iyuldagi “Innovatsion faoliyat to‘g‘risida”gi O‘RQ-630-son Qonunining qabul qilinishi alohida ahamiyat kasb etdi. Qonun 6 bob, 39 moddadan iborat bo‘lib, innovatsion faoliyatning erkinligi; innovatsion faoliyatni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlashdan teng foydalanilishini ta’minlash; innovatsion faoliyatni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlashning oshkoraligi va aniq yo‘naltirilganligi; raqobatni rivojlantirishga ko‘maklashish; axborotni erkin almashish; innovatsion faoliyat natijasida yaratilgan intellektual mulk obyektlarini huquqiy muhofaza qilish; fuqarolarning hayoti va sog‘ligiga, atrof-muhitga zarar yetkazmaslik [1] kabi tamoyillar ustuvor etib belgilangan.

Rivojlangan mamlakatlarning tajribasiga ko‘ra, jamiyatni yuksaltirishning asosi ta’limni modernizatsiya qilishga bog‘liqdir. Modernizatsiya jarayoni natijasida mamlakatda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish barqaror o‘sish ta’minlanadi.

O‘zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentabrdagi “Ta’lim to‘g‘risida”gi qonunning 36-moddasida aynan Ta’lim sohasidagi eksperimental

va innovatsion faoliyat ta’limni modernizatsiya qilish maqsadida amalga oshiriladi hamda yangi ta’lim texnologiyalari va resurslarini ishlab chiqishga, ularni sinovdan o’tkazishga hamda ta’lim jarayoniga joriy etishga qaratilgan [2].

Shuningdek, ilm-fan va ilmiy faoliyatni rivojlantirish va istiqbolda uni muntazam isloh qilib borishning ustuvor yo‘nalishlarini belgilash, zamonaviy bilim va yuksak ma’naviy-axloqiy fazilatlarga ega, mustaqil fikrlaydigan yuqori malakali kadrlar tayyorlash jarayonini sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarish, ilmiy-tadqiqot muassasalarini modernizatsiya qilish, zamonaviy innovatsion texnologiyalarni iqtisodiyot tarmoqlari va ijtimoiy sohaga jadal tatbiq qilishni rivojlantirish maqsadida «Ilm-fanni 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi» ham qabul qilindi.

«Innovatsiya» atamasi me’yoriy hujjatlar, maxsus lug‘at va adabiyotlarda turlicha ta’riflanadi hamda izohlanadi.

O‘zbekiston Respublikasining “Innovatsion faoliyat to‘g‘risida”gi Qonunining 3-moddasida ham qator mazkur soha bilan bog‘liq tushunchalarga ta’rif berilgan: innovatsiya, innovatsion infratuzilma, innovatsion loyiha, innovatsion faoliyat, texnologiyalar transferi, yangi ishlanma va h.k. Shu jumladan, innovatsiya tushunchasiga quyidagicha ta’rif berilgan: “innovatsiya – fuqarolik muomalasiga kiritilgan yoki shaxsiy ehtiyojlar uchun foydalaniladigan, qo‘llanilishi amaliyotda katta ijtimoiy-iqtisodiy samaraga erishishni ta’minlaydigan yangi ishlanma” [1].

Biroq “innovatsiya” so‘zi uzoq tarixga yega. Rus olimi T.A.Stolyarovaning tadqiqotlariga ko‘ra, innovatsiya so‘zi XIII asr boshlarida fransuzlar tomonidan og‘zaki nutqda ishlatilgan.

Fransuz entsiklopediyasida esa, “innovatsiya” 1297-yilda paydo bo‘lgan, ammo unga izoh berilmagan. 1553-yilda esa, J.Bred “innovatsiya” tushunchasini ma’lum bir tarixiy shaxsga nisbatan quyidagicha izohlagan: “...kimki innovatsion fikrlashga moyil bo‘lsa, u hamisha yangilik o‘ylab topgan va o‘z davridan oldinda bo‘lgan...”.

Ilmiy adabiyotlarda, u ancha keyin paydo bo‘ldi. Taxminan XIX asrda nemis etnograflari uni an’anaviy (odatiy) madaniyatga yangi (begona) madaniyatning alohida elementlarining “infiltratsiyasi” (qorishishi) ma’nosida ishlata boshladilar.

XX asrda “innovatsiya” tushunchasi Y.A.Shumpeterning asarlari tufayli iqtisodiy kategoriya sifatida faol qo‘llanila boshlandi. Olim “ijodiy halokat” tushunchasiga muvofiq innovatsiyalarning uch turini aniqladi:

- birinchi daraja – inqilobiy yoki transformatsion innovatsiyalar;
- ikkinchi daraja – muhim innovatsion jarayonlar (birinchidagi kabi keng ko‘lamli o‘zgarishlar emas);
- uchinchi daraja – evolyutsion innovatsiyalar korxonalarning barqaror rivojlanishi ushuni harakatlantiruvchi kuch sifatida.

Olimning ishlanmalari yangi ilmiy soha – innovatika, yangiliklar kiritish haqidagi fanning paydo bo‘lishi va inson faoliyatining ijtimoiy-madaniy me’yorlari va ideallarini yaratish ushuni asos bo‘ldi. Bugungi kunda ushbu ilmiy soha doirasida bir qancha yo‘nalishlar muvaffaqiyatli rivojlanmoqda: boshqaruv, texnologik, pedagogik, tibbiy, texnik va boshqa innovatsiyalar.

Mazkur tushunchaning bugungi kungacha xilma-xil ta’riflari shakllantirilgan bo‘lib, ularni tahlil etish asosida tadqiq etilayotgan fenomenga xos asosiy yondashuvlarga aniqlik kiritish mumkin.

Maktab direktorlarini boshqaruv faoliyatiga tayyorlash bilan bog‘liqlikda S.Turg‘unov innovatsiya – maqsadga yo‘naltirilgan o‘zgartirishlar bo‘lib, ma’lum bir ijtimoiy birlikka – muassasa, uyushma, jamoa va guruhlariga yangi, nisbatan barqaror bo‘lgan elementlarni, umumiy holda xalqning ma’naviy-madaniy munosabatlari va mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi bilan uzviy bog‘liq bo‘lgan yangiliklarni kiritishdir, degan fikrni olg‘a surgan.

Pedagogik innovatsiyalarning paydo bo‘lishi va rivojlanishiga quyidagi qator omillar bilan bog‘liq: ta’lim oluvchilar, ularning ota-onalari, ta’lim tashkilotlari talab va ehtiyojlaridagi farqlar; har bir ta’lim tashkilotining o‘zida turli nuqtai-nazar va yondashuv ta’raflarining mavjudligi; innovatsion va an’anaviy o‘quv dasturlarini integratsiyalash muammosi; yangiliklarni joriy etish uchun o‘quv-metodik ta’minotning mavjud emasligi; yangiliklarni mavjud shart-sharoitlarga adaptivligini ta’minlash; novator-pedagoglar, bundan tashqari innovatsion ta’lim tashkilotlari rahbarlarini kasbiy rivojlantirish va yangi boshqaruv modellariga o‘rgatishning yo‘lga qo‘yilmaganligi; ta’lim natijalarini tashxis etish va baholash, monitoring tizimini yangilash ehtiyoji kabilari.

Pedagogik innovatsiyalar deganda, pedagogik yangiliklarni o‘rganish, o‘zlashtirish, ularni baholash, foydalanish va amaliyotga tatbiq etish tushuniladi. O‘z navbatida pedagogik innovatsiyalarning bir nechta turlari mavjud:

modifitsiyalashgan, tuzatish kirituvchi, o‘zgartirish kirituvchi, lokal, modulli, tizimli va boshqalar. Biroq pedagogik innovatsiyalarning ko‘proq umumlashgan tasnifi o‘zida quyidagi ko‘rinishni aks ettiradi:

1) ta’lim va tarbiya maqsadi va vazifalari hamda mazmuniga doir innovatsiyalar;

2) o‘quv-tarbiya jarayoni metodlari, metodikasi va texnologiyasiga doir innovatsiyalar;

3) o‘quv-tarbiya jarayonini tashkil etishga doir innovatsiyalar.

Pedagogik innovatsiyalar keng qamrovli ko‘rinishga ega bo‘lib, ularning umumtomonidan qabul qilingan aniq tipologiyasi yoki tasnifi mavjud emas. Innovatsiyalarni guruhlashtirishga doir yigirmadan ortiq tasnif mavjud, masalan: uzoq muddatli innovatsiyalar va qisqa muddatli innovatsiyalar, radikal va reformatorli, avtoritar va liberal, initsiativ va administrativ va boshqalar.

“Salohiyat” tushunchasining ilmiy nuqtai nazardan qo‘llanilishi Arastu falsafasiga borib taqaladi. Turmush-hayot tarzi “salohiyatga egalik” va “dolzarblik”ni taqozo etib, shakllanish (rivojlanish) ularning biridan ikkinchisiga o‘tib borishni o‘zida aks ettiradi. Shuning ushun salohiyat Arastu tomonidan dolzarblik va harakat muvofiqligiga imkon beradigan sifat, miqdor va o‘rin substansiyasiga layoqatlilik sifatida talqin etilgan. Abu Nasr Forobiy o‘zining “Fozil odamlar shahri” asarida “salohiyat” tushunchasini aql, iroda, ilm-fanga qiziqish, adolatparvarlik, mulohazakorlik, uddaburonlik kabi sifatlarni jamlovchi komil insonga xos jihat, deya e’tirof etadi [3].

Yuqoridagi mulohazalarga tayangan holda shuni aytish mumkinki, faoliyat har doim imkoniyatdan kelib chiqadi va uning asosida amalga oshadi. Imkoniyat va reallik munosabati bilan bog‘liq masalalar xorijlik olimlar tomonidan ham chuqur o‘rganilgan bo‘lib, “salohiyat” tushunchasi ilmiy atama sifatida nemis matematigi K.Gauss tomonidan fanga kiritilgan.

Bundan ko‘rinib turibdiki, innovatsion salohiyatdan ijodkorlikning tubdan farqi innovatsion yondashuvni yangiliklar kiritishga doir faoliyat sifatini belgilab beruvchi salohiyatni amalga oshirish mexanizmi sifatida ko‘rib chiqilganligida namoyon bo‘ladi.

Innovatsion salohiyatni qadriyatlar, ijodiy qobiliyatlarni faollashtirish asosida pedagog shaxsining motivatsion-ehtiyoj sohasiga maqsadga yo‘naltirilgan pedagogik ta’sir ko‘rsatish, reallashmagan tarkibiy asoslarni reallashtirish orqali rivojlantirish mumkin.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning zamonaviy bosqichi jamiyatning siyosiy, iqtisodiy hayoti, ijtimoiy sohasini chuqur isloh qilish jarayonlarini amalga oshirish bilan bog‘liq, fan va ta’lim esa mamlakatimiz iqtisodiy hamda ijtimoiy taraqqiyotining ajralmas manbai bo‘lib, aholi uchun munosib turmush darajasini, jamiyatni tashkil etishning demokratik tartibini, yuksak madaniyat standartlarini kafolatlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentabrdagi “Ta’lim to‘g‘risida”gi O‘RQ-637-son Qonun.
2. O‘zbekiston Respublikasining 2020-yil 24-iyuldagi “Innovatsion faoliyat to‘g‘risida”gi O‘RQ-630-son Qonun.
3. Abu Nasr Forobiy. Fozil odamlar shahri. –T.: A.Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 1993. – 222 b.
4. O‘zbek tilining izohli lug‘ati 2-kitob. – T.: 2006.
5. Макаренко В.А. Современный словарь. В 2 т. – М. 2000.
6. Yo‘ldoshev N.Q., Mirsaidova Sh.A., Goldman Y.D. Innovatsion menejment. Darslik – T.: TDIU, 2011.
7. Kamiljanov B.I. Innovatsiyaviy menejment uslublarini takomillashtirish T.: Fan, 2007.
8. Гусаков М. Формирование потенциала инновационного развития // Экономист. 2009 г.
9. Hakimova D. Maktab o‘qituvchilarining innovatsion salohiyatini rivojlantirishning pedagogik mexanizmini takomillashtirish // Diss. 13.00.01 – Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta’limotlar tarixi. T.: 2024 y. 250 b.